



## TANGRICHILIK VA ISLOM TA'LIMOTIDAGI O'XSHASHLIK VA FARQLI JIHATLAR

JO'RAYEV Akram Namozovich  
*Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti*  
*"Falsafa" kafedrasи o'qituvchisi*

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada Tangrichilik va islom dinlarining ta'lomitidagi o'xshashlik va farqli jihatlari tadqiq etilgan. Xususan, tangrichilikdagi ilohlar va islom dini ta'lomitlari qiyosiy dinshunoslik nuqtai nazardan tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** “Yaratgan”, “Payg‘ambar”, “Tangri”, “Vohid”, “Hayy”, “Boqiy”, “G‘affor”, “Hakam”, “Valiy”, “Muqsit”, “Mumiyt”, “Roshid”, ‘Hafiyz’, “Aliym”, “Ko'k”.

### ABSTRACT

*This article examines the similarities and differences in the teachings of theism and Islam. In particular, the gods of theism and the teachings of Islam are analyzed from the perspective of comparative religious studies.*

**Keywords:** “Creator”, “Prophet”, “God”, “Vahed”, “Hayy”, “Baqiy”, “Ghaffor”, “Hakam”, “Waliy”, “Muksit”, “Mumiyt”, “Rashid”, ‘Hafiyz”, “Aliym”, “Ko'k”.

### KIRISH (INTRODUCTION)

Ma'lumki, tangrichilik dini miloddan avvalgi 2–ming yillik oxiri va 1-ming yillikda vujudga kelgan bo'lib, bu din qadimgi turkiylarning asosiy dini hisoblanadi. Islom dini esa, milodiy VII asrda Arabiston yarimorolida vujudga kelgan. Tangrichilik va islom dinlari o'rtaqidagi o'xshashlikni, avvalo, 1220-yil fevralida Chingizzon va Buxoro qozisi Ashraf o'rtaida bo'lib o'tgan suhbatdan so'ng ham bilib olishimiz mumkin. Xon qozidan islom dini haqida so'raganda qozi islomning iymon haqida xabar berarkan, “Alloh taolo o'zi bir va yolg'iz, azaliy va abadiy, hech kimdan tug'ilmadni va hech kimni tug'dirmadi. Uning tengi va o'xshashi yo'qdir” deganda, Chingizzon ham Yaratganni shunday hisoblashini aytadi. Payg‘ambarlar haqidagi ma'lumotni ham tasdiqladi. Ikkinci rukn hisoblanmish namoz haqida ma'lumot berilganda xon “Biz ham yagona Tangriga xohlagan vaqtda va pok bo'lgan har qanday joyda, hatto otning ustida ham ibodat qilamiz” deb javob bergen. Undan keyin ro'za va zakotni ham xon ma'qulladi, lekin haj bayon etilganda “Butun olam

Tangrining yeridir. Bir joyni tayin etib, u yerga borishning ma'nosi nedir?" deb e'tiroz bildiradi. Qozining so'nggi javobi tarixiy manbalarda zikr etilmagan.<sup>1</sup>

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (LITERATURE REVIEW)

Ushbu maqolani tayyorlashda dinshunoslardan L.N.Gumilyov, Hasan Ato Abushiy, Abulg'oziy, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, V.I.Avdiyev, Usmon Turon, A.Ochildiyev, D.Rahimjonov, M.Alimova, asarlarida bayon etilgan nazariy qoidalar va uslubiy tavsiyalarga tayanildi.

## MUHOKAMA (DISCUSSION)

Endi tangrichilik va islom ta'limotlaridagi o'xhash va farqli jihatlarini ko'rib chiqaylik. Avvalo, qisqacha Tangri sifatlarini islomdagi Alloh ismlari va sifatlari bilan taqqoslasak, aslo foydadan holi bo'lmasdi.

Yagona – **Vohid** (Yagona. Bitta. Bo'linmas. U o'z zotida ham, sifatlarida ham va ishlarida ham birdir)

Azaliy – **Hayy** (tirik, U azaliydir, oldindan yo'q bo'lgan emas)

Abadiy – **Hayy** ( Alloh hayoti abadiydir, o'lim ila yo'q bo'lmas)

Boqiy – **Boqiy** ( Boqiy qoluvchi, U doimiy bordir, Unga foniylit oriz bo'lmas)

Mag'firat qiluvchi – **G'affor** (Ko'plab mag'firat qilib, bandalarning aybini O'z fazli ila ularni itob qilmasdan kechib yuboruvchi)

Hukm qiluvchi – **Hakam** (Hukm qiluvchi)

Yordam beruvchi – **Valiy** (nusrat, ya'ni yordam beruvchi, muhabbat qiluvchi va xalqining ishini yurituvchi zot)

Jazolovchi – **Muqsit** (O'z adolati ila mazlumlarga nusrat va zolimlarga jazo beruvchi).

Himoya qiluvchi – **Hafiyz** (har bir narsani komil muhofaza qiluvchi)

O'ldiruvchi – **Mumiyt** ( O'ldiruvchi. Barcha jonzotlarning jonini oluvchi)

Hamma narsani biluvchi – **Aliym** (Har bir narsani biluvchi. Bo'lgan va bo'ladigan, avvalgi va oxirgi, zohir va botin narsalarning barchasini biluvchi)

Yo'l ko'rsatuvchi – **Roshiyd** ( To'g'ri yo'lga irshod qiluvchi)<sup>2</sup>

**Ko'k** tushunchasi biz bilgan rang ma'nosida emas, albatta. Bizningcha, hatto moddiy ma'nodagi osmon ham emas. Bu atama Tangrining osmon qadar ulug'ligini tushuntirish maqsadida o'sha davr kishilari ongidan kelib chiqib, ishlatalgan bo'lishi kerak. Agar "Ko'k" atamasini islom dinidagi "**Arsh**"atamasi bilan taqqoslasak, ba'zi masalalar oydinlashadi. Qur'oni Karimning Buruj surasi, 15-oyatida: "**U Arsh egasi hamda qadri ulug' zotdir**" deyiladiki, bu yerda Arshni zikr etish Yaratganning

<sup>1</sup>Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi. Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi. Toshkent – 2013. B. 50-202

<sup>1</sup>Hasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi. Toshkent, "Cho'lpon", 1993. 215-bet.

<sup>2</sup>Alloh sifatlari Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning "Sunniy aqidalar. Toshkent. "Hilol-Nashr". 2015

ulug‘ligini bandalarga sezdirish, uning ulug‘liginining dalili ma’nosida keltirilyapti.<sup>3</sup> Haaqqa surasi, 17-oyatida esa yuksaklik ma’nosida keladi.<sup>4</sup> Mu’munun surasi, 116-oyatida esa Arsh “karamli” sifati bilan vasp qilingan.<sup>5</sup> Umuman olganda “Ko‘k” va “Arsh” atamalari Yaratgannning ulug‘ligi va tengi yo‘qligini ta’riflashda ishlataliyapti.

Tangrichilikda **payg‘ambarlik** (nubuvvat va risolat) tushunchasi uchramaydi, lekin yo‘q degani ham emas. Buni Qur’onning Niso surasi, 164-oyati, G‘ofir surasi, 78-oyatlari mazmuniga ko‘ra, Yaratgan insonlarga ko‘plab, payg‘ambarlar yuborganki, ularning hammasi ma’lum emas. Ibrohim surasi, 4-oyatiga ko‘ra payg‘ambarlar har bir qavm (xalq) ga o‘z tilida jo‘natiladi. Yoki Ibn Murdavayhi Abu Zar al-G‘iforiy (r. a.) dan qilgan hadisda Muhammad (s. a. v.) insoniyatga yuborilgan payg‘ambarlar soni bir yuz yigirma to‘rt mingta deb javob bergenligi rivoyat qilinadi.<sup>6</sup>

Umuman olganda islom va tangrichilik dinlari orasida o‘xshashliklar (masalan, tavhidlik va uning xarakteri, jannat va do‘zax masalalari, diniy bag‘rikenglik, ibodat qilishning tub mazmuni va shu kabi aqidaviy masalalar) shu qadar ko‘pki, ularni bitta maqolada batafsil to‘xtalishning imkonini yo‘q. Zero, bu masalalar alohida tadqiqot ishidir.

Biz asosiy e’tiborni tangrichilik dinining mohiyati, uning yakkaxudolik xarakterini izohlashga, bu dinning ta’limoti va g‘oyaviy-aqidaviy asoslari, uning islom dini bilan o‘xshashligi hamda farqli tomonlarini ko‘rib chiqdik.

### XULOSA (CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, tangrichilik dini dunyodagi eng qadimiy jahon dinlaridan biri bo‘lib, bu dinning asosiy mohiyati monoteistik xarakterda bo‘lib, ba’zi tadqiqotchilar ta’kidlaganlaridek, ibtidoiy din shaklaridan biri yoki ularning murakkab umumlashmasi, sehrgarlik yohud shamanizm ham emas deb e’tirof etadilar. Buni tarixiy manbalar va tadqiqotchillarning xulosalari tasdiqlaydi. U keyingi ming yilliklar davomida ham o‘zining yakkaxudolik xususiyatlarini saqlab qoldiki, bu keyinchalik turkiylarning islomiyatga o‘tishlariga sabab bo‘ldi.

### REFERENCES

1. Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi. Toshkent islom universiteti nashriyot matbaa birlashmasi. Toshkent – 2013. B. 50-202
2. Hasan Ato Abushiy. Turkiy qavmlar tarixi. Toshkent, “Cho‘lpon”, 1993. 215-bet.

<sup>3</sup>Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 6-juz. – T.: 2008, - 437-bet

<sup>4</sup>Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 6-juz. – T.: 2008, 242-bet.

<sup>5</sup>Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 4-juz. – T.: 2008, - 99-b.

<sup>6</sup>Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sunniyaqidalar.Toshkent. “Hilol-Nashr”. 2015. 270-bet.



3. Alloh sifatlari Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning “Sunniy aqidalar. Toshkent. “Hilol-Nashr”. 2015
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 6-juz. – T.: 2008, - 437-bet
5. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 6-juz. – T.: 2008, 242-bet.
6. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 4-juz. – T.: 2008, - 99-b.
7. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Sunniy aqidalar. Toshkent. “Hilol-Nashr”. 2015. 270-bet.